

UDC 631.6

SUG'ORILADIGAN EGIN YER MAYDONLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH.

Inamov Bekzod Nizamovich¹, Abdusalomov Abdirauf Abdusalom o'g'li²

¹*“O'zdavyerloyiha” DILI Bosh direktori o'rinbosari q.x.f.f.d. (PhD),*

katta ilmiy xodim

0009-0007-8715-8503

²*“O'zdavyerloyiha” DILI 2-bosqich tayanch doktoranti*

0009-0001-7291-5299

Annotatsiya. Sug'oriladigan ekin yer maydonlaridan samarali foydalanish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirishda, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda va iqtisodiy barqarorlikni saqlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston kabi quruq iqlim sharoitida sug'orish tizimlari ekinlarni o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, sug'oriladigan ekin yer maydonlaridan maksimal darajada foydalanishning muammolari va yechimlarini tushunish zarur. Bu tezis orqali, sug'oriladigan ekin yer maydonlaridan samarali foydalanishning muhimligi va bu borada amalga oshirilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlar haqida keng qamrovli tahlil va tavsiyalar taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat, eroziya, GAT, sho'rlanish, almashlab ekish, iqtisodiy va ekologik.

ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОРОШАЕМЫХ ПОСЕВНЫХ ПЛОЩАДЕЙ.

Аннотация. Эффективное использование орошаемых пахотных земель играет важную роль в повышении эффективности сельскохозяйственного производства, обеспечении продовольственной безопасности и сохранении экономической стабильности. В таком засушливом климате, как

Узбекистан, ирригационные системы оказывают прямое влияние на рост сельскохозяйственных культур. В то же время необходимо понимать проблемы и пути решения максимального использования орошаемых пахотных земель. В данной диссертации представлен всесторонний анализ и рекомендации о важности эффективного использования орошаемых пахотных земель и мерах, которые следует принять в этом отношении.

Ключевые слова: еда, эрозия, ГАТ, соленость, севооборот, экономические и экологические.

EFFICIENT USE OF IRRIGATED CULTIVATED AREAS.

Abstract. *Effective use of irrigated arable land plays an important role in increasing the efficiency of agricultural production, ensuring food security and maintaining economic stability. In a dry climate like Uzbekistan, irrigation systems have a direct impact on crop growth. At the same time, it is necessary to understand the problems and solutions of maximum use of irrigated arable land. This thesis presents a comprehensive analysis and recommendations about the importance of effective use of irrigated cropland and the measures that should be taken in this regard.*

Key words: *food, erosion, GAT, salinity, crop rotation, economic and environmental.*

Kirish. Yer shari yuzasining 13,2 milliard gektarini quruqlik maydoni tashkil etib, hozirda uning 12 foizi qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish uchun ishlatilmoqda. Biroq, turli tabiiy va antropogen ta'sirlar natijasida bu yerlarning miqdori va sifati yildan-yilga qishloq xo'jaligi oborotidan chiqib ketmoqda. Shuning uchun, global oziq-ovqat muammosini hal qilish va cheklangan sug'oriladigan ekin yer maydonlaridan samarali va oqilona foydalanishni ta'minlash uchun intensiv texnologiyalarni qo'llash, investitsiyalar kiritish, tuproqlar unumdorligini saqlash va oshirish, hamda yer resurslarining funktsiyalarini yaxshilash kabi tizimlarni rivojlantirish zarur bo'ladi.

Sug'oriladigan yerlar Respublikamiz yer fondining atigi 9.5% tashkil etadi. Asosan cho'l va saxro mintaqalarida joylashgan tabiiy yaylovlarning xosildorligi juda pastligi, qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan yerlarning qisman sho'rlanganligi, tuproq eroziyasiga uchraganligi va boshqa tuproq unumdorligiga salbiy ta'sir etuvchi jarayonlarning paydo bo'layotganligi respublikamiz yer fondidan samarali foydalanishni tashkil etish masalasining dolzarbligini ko'rsatib turibdi.


Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu tezisda Sug'oriladigan ekin yer maydonlari qishloq xo'jaligida hosildorlikni oshirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Ularning samarali ishlatilishi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining miqdori va sifatini yaxshilash, tabiiy resurslarni tejash va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun muhimdir. Ushbu tezis sug'oriladigan yer maydonlaridan samarali foydalanishning asosiy usullari va strategiyalarini tahlil qiladi.

Tadqiqot obyekti va uslublari. Tadqiqot obyekti sifatida Qashqadaryo viloyati, Nishon tumani hududidagi qishloq xo'jalik sug'oriladigan ekin yer maydonlari tanlab olingan. Tadqiqotlar uslubi asosini amaliyotda umum qabul qilingan uslublar tashkil etadi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Sug'oriladigan ekin maydonlari yer resurslarining cheklanganligini hisobga olgan holda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy omili hisoblanadi. Jahon bo'yicha sug'oriladigan yer maydonlari 300 million gektardan oshadi va bu maydonlarning samarali boshqarilishi global oziq-ovqat ishlab chiqarishiga katta hissa qo'shadi. O'zbekiston, ayniqsa, quruq va yarim quruq hududlarda joylashganligi sababli, sug'oriladigan yerlarning samarali foydalanishi o'ta muhimdir.

Olib borilgan tadqiqotlar jarayonida bugungi kunning dolzarb muammolaridan biriga aylanayotgan oziq-ovqat xavfsizligini taminlash va iloji boricha sug'oriladigan ekin yer maydonlarini saqlab qolish maqsadida Respublikamiz hududidagi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'oriladigan ekin yer maydonlari qishloq xo'jaligi oborotidan chiqib ketish sabablari tushuniladi.


Ammo, sug'oriladigan ekin yer maydonlaridan samarali foydalanishda bir qator muammolar mavjud 1-rasm.



1-rasm. ***Sug'oriladigan ekin yer maydonlaridan samarali foydalanish.***

Ilmiy manbaalarda shuni ko'rsatadiki, so'ngi yillari sug'oriladigan ekin yer maydonlarini turli obyektiv va subyektiv sabablar bilan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidan chiqib ketayotganligi oqibatida har bir kishi hisobiga uning kamayishi va buning natijasida aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab o'sib borayotganlarini qondirish iqtisodiyotning murakkab muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Shu sababli bunday muammoni hal qilishda sug'oriladigan ekin yerlari maydonlaridan foydalanish darajasini tubdan oshirish, bunday hududlardan foydalanish bo'yicha tarixiy tajribalari, zamonaviy GAT texnologiyalari va innovatsion yondashuvlar asosida ekinzorlar samaradorligini oshirish, bunday hududlar uchun yirik hajmlardagi investitsiyalarni jalb qilish orqali intensiv texnologiyalar asosida mevali bog' va yong'oqzorlar, uzumzorlar, pista-bodomzorlar tashkil etish, bunday hududlarda qurg'oqchilikka chidamli bo'lgan donli, do'kkakli va moyli ekinlar navlarini tanlash va ularni rayonlashtirish, dehqonchilikda ilmiy asoslangan almashlab ekishni joriy etish, ushbu hududlarning tabiiy joylashish mintaqalari bo'yicha yer va ekin turlarini optimallashtirish masalalariga alohida e'tibor berish zarur.

Sug'oriladigan ekin yer maydonlardan samarali foydalanishni ilmiy asoslangan tarzda tashkil etish, yer va sug'orish suvining optimal nisbatlarini ta'minlashga bog'liq [1; 324-b.]. Ushbu ishlab chiqarish vositalaridan to'g'ri foydalanish, sug'oriladigan ekin yer maydonlarning qiymatini oshiradi. Sug'oriladigan ekin yer maydonlardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi [2; 26-b.] 2-rasm.



2-rasm. *Sug'oriladigan ekin yer maydonlardan foydalanish samaradorligi*

Sug'oriladigan ekin yer maydonlarning samaradorligini oshirish, tuproq qoplamini degradatsiya jarayonlaridan muhofaza qilish hamda oldini olish va unumdorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ilmiy asoslangan holda ishlab chiqish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Xulosa, taklif va tavsiyalar: Xulosa qilib aytganda, sug'oriladigan ekin yer maydonlaridan samarali foydalanish, yer resurslarini boshqarish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va agrotexnologik usullarni amalga oshirish orqali erishiladi. Bu nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ekologik barqarorlikni ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Sug'oriladigan yer maydonlarining samarali boshqarilishi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqarorligini saqlashda asosiy rol o'ynaydi. Ushbu tezisda o'rganilgan nazariy va uslubiy tamoyillar sug'oriladigan ekin yer maydonlarining samaradorligini oshirishning muhim yo'llarini yoritib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Babajanov A.R., Muqumov A.M., Sharipov S. Hududlarni rivojlantirish T., TIQXMMI, 2018, 324-b.
2. Кузиев Р.К., Сектименко В.Е. Почвы Узбекистана. Ташкент, ИПА, 2010
3. FAO. 2011. The state of the world's land and water resources for food and agriculture (SOLAW) – Managing systems at risk. Food and Agriculture Organization of the United Nations, Rome and Earthscan, London. <https://doi.org/10.4060/cb7654ru>.
4. Inamov B.N., Abdisalomov A.A., Jo'rayev A.R. Qishloq xo'jalik ekin yer maydonlarini yo'qlamadan o'tkazish ishlarini tashkil etish. "Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning intensiv va innovatsion yechimlari" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi ma'ruzalar to'plami. 2024-yil 19-aprel. – Toshkent, 2024. - B. 108-114.
5. Abdisalomov A.A., Toshtemirov T.A., Jo'rayev A.R. The main causes of fallow land on agricultural land and suggestions and recommendations for their prevention // American Journal Of Agriculture And Horticulture Innovations (ISSN – 2771-2559). - №1/2024. P – 45-52.